

қаратилган инновацион технологияларни қўллаш, тингловчиларда мустақил ва жамоа бўлиб ишлаш кўникмаларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Мазкур ёндашув таълим сифатининг сезиларли равишда ижобий томонга ўзгаришига ва тингловчиларнинг тил ўрганишга бўлган мотивациялари кучайишини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. D.Delamare-Le ва J.Winterton (2016). The competence-performance issue in second-language acquisition theory: A debate. Research methodology in second-language acquisition, 3–15. Chicago.
2. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. Материалы к 4-заседанию методологического семинара. 16 ноября 2004 год. Москва.
3. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики. Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. Москва.: “Академия”, 2000.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. 8-жилд. – 55 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2006. 3 жилд. – 557 б.
6. Khodjayev B.H. Technology of historical thinking development of comprehensive school pupils. The Way of Science, 2014.
7. Рискулова К.Ж. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиси сациолингвистик компетенциясини шакллантириш тизими: Дис.канд.пед.наук: –Тошкент, 2017. 2
8. Гарфинкель Г. Исследования по этнометодологии. – СПб.: Питер, 2007. – С 335. – ISBN 5-469-00033-8.

Nargiza RAJABOVA

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
“Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi katta o’qituvchisi,
Toshkent, O’zbekiston*

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING TA’LIM SIFATINI IFODALOVCHI MILLIY REYTING TIZIMI

Mazkur maqolada ta’lim sifatini nazorat qilish va baholashning dolzarbligi, oliy ta’lim muassasalari reyting ko’rsatkichlarini tashkil etishning xalqaro amaliyoti va O’zbekistonda oliy ta’lim muassasalari reytingi tizimining joriy etilishi borasidagi ma’lumotlar bilan tanishtirib o’tilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari milliy reytingining o’ziga xos xususiyatlari hamda baholash mezonlari bilan tanishtirilgan. Maqola yakunida esa muallifning sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shaxsiy fikr va mulohazalari keltirilgan.

Kalit so’zlar. Ta’lim sifati, OTM, reyting tizimi, Web of Science, Scopus, Google Scholar, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc), ta’lim standartlari, malaka talablari.

Данная статья знакомит с актуальностью мониторинга и оценки качества образования, международной практикой организации рейтинговых показателей высших учебных заведений, внедрением рейтинговой системы высших учебных заведений в Узбекистане. Также были введены особенности национального рейтинга высших учебных заведений и критерии оценки. В конце статьи даются личные мнения и комментарии автора о проделанной работе в данной области.

Ключевые слова. Качество образования, ВУЗ, рейтинговая система, Web of Science, Scopus, Google Scholar, доктор философии (PhD), доктор наук (DSc), образовательные стандарты, квалификационные требования

This article introduces the relevance of monitoring and evaluating the quality of education, the international practice of organizing the rating indicators of higher education institutions, and the implementation of the rating system of higher education institutions in Uzbekistan. Moreover, the specific features of the national rating and evaluation criteria of higher educational institutions have been introduced. At the end of the article, the author's personal opinions and comments on the work carried out in this field have been given.

Key words. Quality of education, HEIs, rating system, Web of Science, Scopus, Google Scholar, Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc), educational standards, qualification requirements

So’nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar singari Oliy ta’lim tizimida ham islohotlar, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, mazkur islohotlar doirasida bir qator oliy ta’lim muassasalarida o’zini o’zi moliyalashtirish tizimi joriy etildi, shuningdek, ularda ta’lim sifatini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratila boshlandi.

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o’zining Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday ta’kidlagan edi: “Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Yangi

tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQShning Webster universitetining filiallarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini ta'kidlash lozim. Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo'limlar ochildi".

Zamonaviy ta'lim tizimi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan masala bu ta'lim muassasalari faoliyati sifati va uni aniq dalillarga asoslangan mezonlar va ko'rsatkichlar asosida samarali nazorat qilish masalasi sanaladi. Oliy ta'lim muassasalari va ularning manfaatdor tomonlari o'rtasida oliy ta'lim va uning faoliyati samaradorligini aniq ma'lumotlarga asosan tahlil qilish bo'yicha yuqori talab mavjud. Bir tomondan, oliy ta'lim muassasalari qaror qabul qilish va uzoq davrga mo'ljallangan strategik rejalar uchun bunday tahlilni amalga oshirishga ehtiyoj seziladi. Ikkinchi tomondan, tashqi manfaatdor tomonlarga ta'lim muassasasida ta'limning sifati to'g'risida aniq ma'lumotlar kerak bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda, Oliy ta'lim muassasasida faoliyat samaradorligi va ta'lim sifatini baholash bo'yicha bir qator miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlaridan foydalanib kelinadi. Ushbu ko'rsatkichlar reytinglar, moliyalashtirish shakllari va ta'lim muassasasida boshqaruv mexanizmlari samaradorligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholashga qaratilgan reyting tizimini ishlab chiqish masalasi bir qator tadqiqotlarda ilgari surilgan. Xususan, Gover va Loukkola, A.S.Makkormik, A.Rovargers, T.Loukkola tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Gover va Loukkola tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda OTMLar reytingi ular o'rtasida raqobatning kuchayishiga, ta'lim sifatining oshishiga hamda ish beruvchi va talabalarga to'g'ri tanlovni amalga oshirishlarida katta yordam beradi.

O'zbekistonlik O.Raximov, L.Eshmuxamedov, O.Qahhorov, Z.Kosimova kabi olimlar hamda tadqiqotchilar ham mazkur sohada bir qator tadqiqotlar amalga oshirganlar. Ularning olib borgan tadqiqotlari asosiy mazmuni xorij amaliyotida ta'lim sifatini nazorat qilish, uni baholash hamda oliy ta'lim muassasalari reytingini ishlab chiqish sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasini tanlashda uning to'g'ri tanlanganligi juda muhimdir, chunki tadqiqot metodologiyasi har qanday tadqiqotda doimo asosiy o'rinni egallaydi. Noto'g'ri tanlangan tadqiqot metodologiyasi butun ishga zarar yetkazishi va tadqiqot jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Metodologiyani tanlashda biz uchta asosiy jihatga amal qilamiz: tadqiqotimiz uchun eng oqilona tanlov nima, ma'lumotlarni to'plashda qanday usullardan foydalanmoqchimiz va qanday amaliy savollarga javob topishimiz kerak. O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash va uni nazorat qilish, oliy ta'lim muassasalarining reytingini tashkil etish va yuritishning huquqiy-normativ asoslari tayyorligini o'rganib, oldimizga qo'ygan vazifamizdan kelib chiqib, empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar:

Ma'lumki, hozirgi kunda xalqaro oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlovchi bir qator reyting tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bularga U-Multirank, ARWU, QS World University Rankings, THE World University Rankings, THE Europe Teaching Rankings, CWUR, Emerging/ Trendence Global, Round University Ranking reyting tizimlari shular jumlasidandir. Ushbu sanab o'tilgan reyting tizimlarida universitetlari reytingi turli xil

ta'lim hamda boshqaruv sifati ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro universitetlar reytingida qo'llaniladigan ta'lim ko'rsatkichlari

№	U-Multirank	ARWU	QS World University Rankings	THE World University Rankings	THE Europe Teaching Rankings	CWUR	Emerging/ Trendence Global	Round University Ranking
1.	+				+			
2.								
3.			+				+	
4.	+	+				+		
5.	+				+			
6.	+		+	+	+			+
7.	+		+	+	+			+
8.	+							
9.	+				+			
10	+							
11	+	+				+		

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ta'lim sifati bilan bog'liq bo'lgan asosiy 10 ta ko'rsatkichlar universitetlar reyting ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalanib kelinmoqda. U ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyoti ham turli xil shakldagi e'tiborga loyiq. Xususan, yuqoridagi dastlabki uchta ko'rsatkich ya'ni, talabalar so'rovi, reputasiya so'rovi va ish beruvchilar so'rovi so'rovnoma usuliga asosan respodentlar fikrini umumlashtirgan holda aniqlanadi. Qolgan ko'rsatkichlar esa oliy ta'lim muassasasining nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash orqali aniqlanadi.


O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish, ularning milliy milliy reyting tizimini ishlab chiqish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yil 20-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-2909 sonli qarorida ta'lim va o'qitish sifati ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etish belgilangan bo'lib, unga asosan 2017-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 515-sonli qarori asosida Davlat inspeksiyasi o'z faoliyatini boshladi.

Mazkur inspeksiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

- ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish;
- ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlari, professor o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish, pedagog

- kadrlarga malaka toifalarini berish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;
- idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish;
- talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish.

1-rasmda O'zbekiston amaliyotida foydalanib kelinayotgan ta'lim sifatini baholash reytingining asosiy komponentlari va ular o'rtasida ballarning taqsimlanishi keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalari milliy reytingi to'rtta komponentdan tashkil topgan bo'lib, 100 ballik mezonda baholanadi. Milliy reyting professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati, o'quv-metodik ishlar va o'qitish sifati, talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha faoliyati yo'nalishlari baholaridan iborat.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasasi reyting bahosi komponentlari.

O'z navbatida milliy reytingdagi 4 ta yo'nalish ham alohida kichik mezonlardan tashkil topgan bo'lib, bu hisoblashning aniqligiga, reyting tizimining shaffof bo'lishiga yordam beradi.

Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati. Bu yo'nalish quyidagi mezonlar yig'indisidan tashkil topgan:

Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida);

Reytingni aniqlash yilida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar-treninglar) o'tkazgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida);

Professor-o'qituvchilar tomonidan himoya qilingan doktorlik (PhD va DSc) dissertatsiyalari soni;

Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari nashrlariga iqtiboslar ("Web of Science", "Scopus" va "Google Scholar" bazalari bo'yicha, so'nggi 5 yilda);

Reytingni aniqlash yilida xalqaro ilmiy jurnallarda va mahalliy ilmiy nashrlarda ("Web

of Science", "Scopus" va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda) chop etilgan maqolalar (bir nafar professor-o'qituvchi hisobiga);

Oliy ta'lim muassasasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga taqdim etish asosida olingan mablag'lar hajmi yoki boshqa nomoddiy ko'rsatkichlar (ijtimoiy samaradorlik) (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan);

Reytingi aniqlanayotgan yilda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi, ya'ni chop etilgan monografiyalari soni, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar.

O'quv-metodik ishlar va o'qitish sifati. OTMLar faoliyatning mazkur yo'nalishini baholash quyidagi mezonlarga asosan amalga oshiriladi:

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifati darajasi va ijtimoiy-ma'naviy muhit (talabalar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma natijalari asosida);

Hisobot yilida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan yozib tayyorlangan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari;

Reyting aniqlanayotgan yilda xorijiy professor-o'qituvchilar va talabalar ulushi (tegishli ravishda umumiy songa nisbatan foizda);

Hisobot yilida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan almashuv dasturlari, konferensiyalar, ilmiy yoki o'quv loyihalarida o'qituvchilar va talabalarning ishtirok etganligi;

Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha xorijiy tilda o'qitiladigan fanlar salmog'i (mutaxassislik fanlarining jami soniga nisbatan foizda).

Talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati. Bu ko'rsatkich esa quyidagi mezonlar asosida aniqlangan ballar yig'indisidan tarkib topadi:

talabalar bilim darajasi (nazorat ishlari natijalari asosida);

bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi (bitirganidan so'ng 6 oy ichida);

oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilim va ko'nikmalari sifati haqida ish beruvchilarning bahosi (so'rovnoma asosida aniqlanadi);

reyting yilida xalqaro va respublika olimpiadalarida, nufuzli tanlovlar va sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan hamda mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar salmog'i.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha faoliyati. Bu yo'nalish oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida sog'lom turmush-tarzinini keng targ'ib etish, ularni sport bilan shug'ullanishlarini rag'batlantirish maqsadida tanlab olingan bo'lib, quyidagi ikkita mezonlardan tashkil topgan:

Sport klubi va seksiyalariga a'zo bo'lib, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi hamda sport tasnifiga (razryadga) ega bo'lgan talabalar soni;

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha moddiy-texnik bazaning holati, sport infratuzilmasining mavjudligi va jihozlanish darajasi.

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlarni aniqlashda turli xil shakldagi so'rovnomalar va hisoblash, qiyoslash usullaridan keng foydalaniladi.

Reyting mezonlari uchun ballarni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- har bir reyting mezoni bo'yicha eng katta ko'rsatkichga ega oliy ta'lim muassasalari aniqlanadi;
- eng katta ko'rsatkichga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalariga shu mezon uchun belgilangan eng yuqori ball beriladi;

- boshqa barcha oliy ta'lim muassasalarining ballari shu mezon bo'yicha eng yuqori ballga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining ko'rsatkichiga nisbatan hisoblanadi;
- har bir mezon bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi oliy ta'lim muassasalari reytingini belgilaydi.

Reyting natijalari har yili keyingi o'quv yili boshlanishidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya sinining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish joizki, U-Multirank, ARWU, QS World University Rankings, THE World University Rankings, THE Europe Teaching Rankings, CWUR kabi bir qator reyting tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bu reyting tizimlari ta'lim sifati bilan bog'liq bo'lgan 10 ta asosiy mezonlar asosida OTM faoliyatini baholaydi. Bunda ko'rsatkichlar so'rovnomaga va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash hamda taqqoslash orqali aniqlanadi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish, ularning milliy milliy reyting tizimini ishlab chiqish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasini Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2018-yildan OTMLar milliy reytingi joriy etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati, 22-dekabr 2017-yil;
2. Gover, A. and Loukkola, T., 2018, Enhancing quality: From policy to practice (Enhancing Quality through Innovative Policy & Practice/EQUIP). <http://bit.ly/30mvwM2>(accessed 04/05/2020).
3. McCormick, A. C., 2017, 'The intersection of rankings with university quality, public accountability and institutional improvement, in Hazelkorn, E. (Ed.) Global Rankings and the Geopolitics of Higher Education: Understanding the influence and impact of rankings on higher education, policy and society (London and New York, Routledge), 205-15.
4. Rauhvargers, A., 2011, Global university rankings and their impact (Brussels, EUA). <https://bit.ly/2LUwLgi>(accessed 04/05/2020).
5. Loukkola, T.:2017, Europe: Impact and influence of rankings in higher education', in Hazelkorn, E. (Ed.) Global Rankings and the Geopolitics of Higher Education: Understanding the influence and impact of rankings on higher education, policy and society (London and New York, Routledge), pp. 103-15.
6. Raximov O.D., Eshmuxamedov L.M. Chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini baholash, "International conference on learning and teaching" 2022/6
7. Qahhorov O.S. Ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-yil.

Bahora NARZULLAEVA,

*Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,
Toshkent, O'zbekiston*

KO'P MILLATLI OILADA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Maqolada ko'p millatli oilada tolerantlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari takomillashtirish hamda oilada tolerantlik darajasining asosiy ko'rsatkichlari haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Oila, ko'pmillatli, tolerantlik, tamoyillar, bag'rikenglik, osoyishtalik, tolerant inson, muloqot.

В статье представлены отзывы о совершенствовании социально-педагогических аспектов развития толерантности в семье и основные показатели уровня толерантности в семье.

Ключевые слова. Семья, толерантность, принципы, мир, толерантный человек, общение.

The article provides feedback on improving the socio-pedagogical aspects of the development of tolerance in the family and the main indicators of the level of tolerance in the family.

Key words. Family, tolerance, principles, peace, tolerant person, communication.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi hayotimizda tolerantlik tushunchasi xalqaro miqyosda insoniyat turmush tarzi va rivojining zaruriy bo'lgan muloqot shartidir. Xalqaro YUNESKO tashkilotining 1995-yil bo'lib o'tgan bosh konferensiyasida "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilingan edi. Hozirgi kunda bu deklaratsiyaga a'zo bo'lgan mamlakatlar soni 185 taga yetdi. Mamlakatimiz ham ularning safidan o'rin oldi. Qomusiy lug'atlarda "tolerantlik" lotincha "tolerantio", ya'ni "sabr-toqatlilik", "keng fe'llilik", "bag'rikenglik" ma'nolarini anglatadi. Tolerantlik – bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishdir. Tolerant inson – ma'naviy, axloqiy qadriyat va fazilatlarga ega bo'lgan shaxsdir. Jamiyatning madaniy va axloqiy rivojlanishi insonlarning bag'rikengligiga bog'liqdir. Har bir odam shaxs sifatida o'z qarashlariga, o'z xosligiga ega ekan, shu nuqtayi nazardan har bir insonga alohida, o'ziga xosligini hisobga olgan holda muomala qilish va har qanday sharoitda unga nisbatan tolerant bo'lish lozim va shart.

"Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi". Tolerantlik oilaviy qadriyatlar ichida muhim o'rin egallaydi. U faqat maqsadli tashkil qilingan pedagogik muhit va jarayonda shakllanadi. Shu bois, tolerantlik nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik hodisa hisoblanadi. Oila – bolaning ilk ma'naviy qadriyatlari, shu jumladan, tolerantlik tafakkuri shakllantiriladigan pedagogik makon hamdir.